

**SHOLINI LAZURNIY NAVIDA HOSILDORLIGIGA UG‘ITLAR ME‘RLARING
TA‘SIRI**

Tenglasheva Nurhayot To‘ychi qizi, Abitov Ilnur Ildusovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

2 kurs 35-24 Agro guruhi talabasi, ilmiy raxbar Agronomiya kafedrasida (PhD), dotsenti

E-mail: abitov_ilmur@mail.ru

Tel: +998 99 976 36 63, +998 94 607 44 86

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21215470>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyatining Navoiy viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida asosiy ekinda sholing Lazurniy naviga ug‘itlar ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirgan.

Kalit so‘zlar: o‘tloqi bo‘z tuproq, poyalar zichligi, poyalar soni, ro‘vak, don vazni, 1000 dona don vazni, hosildorlik.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о влиянии удобрений на сорт риса Лазурный, выращиваемый в качестве основной культуры в условиях луговых серозёмных почв Невинской области

Ключевые слова: луго серозёмная почва, плотность стеблестоя, количество стеблей, метёлка, масса зерна, масса 1000 зёрен, урожайность.

Abstract: This article presents data on the effect of fertilizers on the Lazurniy rice variety, cultivated as a primary crop under the conditions of meadow serozem soils in the Navoiy region.

Keywords: meadow serozem soil, stem density, number of stems, panicle, grain weight, 1000-grain weight, yield.

Sholi eng qimmatli donli ekinlardan biri hisoblanadi, chunki uning doni tarkibida turli xil foydali oziq moddalar (vitaminlar, lipidlar, uglevodlar, oqsillar va boshqalar) mavjud.

Dunyoda guruch ishlab chiqarishda asosiy o‘rinni Xitoy va Hindiston egallab, ular birgalikda jahon guruch hosilining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi. Boshqa yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatorida Bangladesh, Indoneziya, Vetnam, Tailand va Filippin ham bor. Ular asosan Osiyoda guruch ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlardir.

Har qanday ekin, shu jumladan sholi yetishtirish samaradorligini oshirish faqatgina texnologiya elementlari va usullarini takomillashtirish (o‘simliklarning tuproq orqali oziqlanishini tartibga solish) hamda ishlab chiqarishga yangi navlarni tezkor joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Yangi navlarni parvarishlash ularning agrotexnika elementlarini, jumladan, o‘g‘itlarni Krasnodar o‘lkasi sharoitlariga moslashtirgan holda aniqlashtirishni va ishlab chiqishni talab qiladi [2].

Ro‘vak mahsuldorligi, shuningdek, tuplanish fazasi ikkinchi yarmining davomiyligiga ham bog‘liqdir, shu sababli o‘sish konusi shakllanishining davomiyligini boshqarish imkoniyati mavjud [3].

Hosil tarkibiy elementlarini muhit omillari yordamida shakllantirish mumkin. Ular orasida eng muhim rol mineral oziqlanish darajasiga tegishlidir [1].

Mineral o‘g‘itlarni samarali qo‘llash sholidan yuqori hosil, shuningdek, konditsion urug‘lik olish omillaridan biridir. Shu munosabat bilan o‘simliklarni makro- va mikroelementlar bilan mutanosib (balanslashtirilgan) oziqlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega [4].

Organik va mineral o‘g‘itlar alohida yoki birgalikda qo‘llanilganda, barcha ekinlardan olinadigan maksimal hosil qo‘shimchasi eng kam unumdorsiz tuproqlarda kuzatiladi.

Unumdorrog va madaniylashgan tuproqlarga o'tilganda esa o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini cheklovchi omillar sifatida ko'proq iqlim va boshqa sharoitlar namoyon bo'la boshlaydi, shu sababli o'g'itlarning samaradorligi ko'pincha pasayadi [5].

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitlarida olib borilib, bunda dala tajribalarni joylashtirish, hisoblash va kuzatuvlar “Dala tajribalarni o'rganish ushlublari” (2007), «Методика Государственного сорта испытания сельскохозяйственных культур» (1985) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilgan. Olingan natijalarning statistik tahlili B.A.Доспеховning «Методика полевого опыта» (1985) uslubiy qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Ilmiy tadqiqotlar 2024 yil Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi “Hamid Jurayev” fermer xo'jaligi tajriba maydonida olib borildi. Asosiy ekinda ekilgan Lazurniy navi ekildi. Tajribada mineral o'g'itlardan natriyli selitra, fosforilardan oddiy superfosfat, kaliylilardan esa kaliy oksid ishlatildi.

Tadqiqot natijalari. Bizning tajribamizda mahsuldor poyalar zichligi tajriba variantlari bo'yicha 1 m² ga 445 dan 549 donagacha o'zgarib turdi. O'g'itlash me'yorlaridan qat'i nazar, o'rtacha eng past ko'rsatkich 483 dona/m². Mahsuldor poyalar sonining ortishi qo'llanilgan o'g'itlar me'yorining oshirilishi bilan izohlanadi.

O'g'itlash me'yorlaridan qat'i nazar, navlar bo'yicha bitta boshqodagi to'liq boshqochalarning o'rtacha eng ko'p soni 148 dona kuzatildi. Mineral o'g'itlar me'yorini oshirib borilishi bilan bitta ro'vakdagi to'liq boshqochalar soni 5–7 % ga ortdi.

Bitta ro'vakdagi don vazni 1,39 dan 1,45 grammgacha o'zgardi. O'g'it me'yorlari bo'yicha farq sezilarli bo'lmadi va navlar kesimida 1,5 dan 3,6 % gacha tebranib turdi. 1000 dona don vazni 27,3 dan 28,6 grammgacha o'zgardi hamda qo'llanilgan o'g'it me'yorlari va navlarga bog'liq bo'lmadi.

Qo'llanilgan o'g'itlar me'yorining oshirilishi barcha navlarda biologik hosildorlikning o'sishiga xizmat qildi. Xususan, o'g'itlar N₁₂₀P₉₀K₆₀ va N₁₅₀P₉₀K₆₀ me'yorlarida qo'llanilganda, navining biologik don hosildorligi N₉₀P₉₀K₆₀ me'yoridagi hosildorlikka nisbatan tegishli 48 g/m² (7,4 %) va 57 g/m² (8,8 %) ga yuqori bo'ldi.

Xulosa. Shunday qilib, sholi don hosildorligiga ham ekinning nav xususiyatlari, ham o'simliklarning mineral oziqlanish darajasi ishonchli sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бойко, Е.С., Василко В.П. Урожайность озимой пшеницы в центральной зоне Краснодарского края, в зависимости от цикличности погодных условий // Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. 2020. № 163. С. 40-52.
2. Бойко, Е.С., Василко В.П. Разработка принципов биологизированной системы земледелия для получения экологически безопасной и органической продукции на черноземе, выщелоченном Западного Предкавказья//Проблемы трансформации естественных ландшафтов в результате антропогенной деятельности и пути их решения: Сборник научных трудов по материалам Международной научной экологической конференции, посвященной Году науки и технологий, Краснодар, 29–31 марта 2021 года. С. 291-293.
3. Масливец, В.А., Герасименко В.Н., Терехова С.С. Рисоводство: учебное пособие /.Казан, 2018. – 164 с.
4. Шеуджен А.Х. Агрохимия и физиология питания риса.//Майкоп: ГУРИПП, 2005.- 1012 с.

Foydalanilgan internet manbalar:

5. <https://universityagro.ru/agrohimia/effektivnost-udobreniy>